SIRDARYO VILOYATI SAYXUNOBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 30-oktabr 282-9-126-Q/24 Sayxunobod tuman hokimligi

Sayxunobod tumanida 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kamsonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunining 14, 43-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi 705-son qarori bilan tasdiqlangan Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta’minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qarori, Oilalarni mustahkamlash va xotin qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401 son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq **qaror qilaman**:

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini ajratish shart bo‘lgan tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar (keyingi o‘rinlarda tashkilot deb ataladi) xodimlarining ro‘yhat bo‘yicha o‘rtacha sonidan (543 nafar) 38 kishini tashkil etadigan 7 % miqdorida, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga; 0.55 % (3 kishi):

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 1.66 % (9 kishi):

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 0.37% (2 kishi):

nogironligi bo‘lgan shaxslar 3.0 % (16 kishi):

pensiya oldi yoshidagi shaxslar 0.37 % (2 kishi):

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar 0.37 % (2 kishi):

odam savdosidan jabrlanganlar; 0.37 %(2 kishi):

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar 0.37 % (2 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining zaxirasi belgilansin.

2. Ushbu Qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan shaxslar uchun qo‘yiladigan xarakterli talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish o‘rni tashkil etilgan ish o‘rni hisoblanadi:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar uchun-bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari:

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oily ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari:

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun-ularning kasb bo‘yicha tayyogarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun-mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini

(sog‘ligining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlarni hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari:

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun-maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari:

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun:

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun:

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AB ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019-yil) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga-xar bir xodim uchun12 oy davomida xar oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorda haq to‘lanadi.

4. “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari 2025-yilga band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan tashkilotlar ro‘yxati birinchi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Korxona, tashkilot hamda muassasalar rahbarlariga:

“Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kamsonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda barpo etili shini ta’minlasinlar.

har chorakda hisobot oyidan keyingi oyning o‘ninchi kuniga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga ish joylarining eng kam miqdori bo‘yicha ish o‘rinlarining tashkil etilganligi haqidagi, shuningdek nechta fuqarolar ushbu o‘rinlarga ishga joylashganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘z vaqtida har oyning yigirma beshinchi kuniga qadar topshirib borilishini ta’minlasinlar.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rni ilgari ushbu o‘rnini egallab kelgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasining to‘xtatilishi munosabati bilan bo‘shab qolgan taqdirda tashkilot o‘n kun muddatda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yangidan ochilgan bo‘sh ish o‘rni to‘g‘risida ma’lum qilishi shart.

7. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilot mansabdor shaxslariga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jazoga tortish choralari qo‘llaniladi.

8. Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganligi uchun jazoga tortilganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

9. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun belgilangan ko‘rsatkichdan ortiqcha, shu jumladan ish uchastkalari (sexlar) tashkil etish uchun turar joy bo‘lmagan binolarni birinchi navbatda ajratish yo‘li bilan band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlar uchun qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibda imtiyozlar belgilansin.

10. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchunband qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini ilovada belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larning bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari belgilansin.

11. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 23-oktabr kundagi 251-9-126-Q/23-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori Z.Baratovga kelishish uchun taqdim qilinsin.

13. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i I.Usmanovga:

bir hafta muddatda mazkur qarorni 4-bandida ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari yetkazilsin.

14. Qaror hokimlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

15. Mazkur qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

16. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari G‘.Xoliqberdiyev hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i I.Usmanov zimmasiga yuklatiksin.

Tuman hokimi **K.Mullajanov**

Sayxunobod tuman hokimining
2024-yil 30-oktabrdagi
282-9-126-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2025-yilda Sayxunobod tumani bo‘yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobat qila olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarini barpo etish vazifasi yuklatilgan tashkilotlar, korxona va muassasalar ro‘yxati

T/R	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida tengshartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan tashkilotlar ro‘yxati	Tashkilotnin STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi 2025-yilga zahiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan							
					Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun (3%)	O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz ota yoki ona, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun (0.55 %)	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun (0.37%)	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’ lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun (1.66%)	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun (0.37%)	Jazoni ijro etish muassasalarida n ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun (0.37%)	Odam savdosidan jabrlanganlar uchun (0.37%)	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan shaxslar uchun (0.37%)
1	Sayxunobod tumani Madaniyat bo‘limi-madaniyat va aholi dam olish markazi	207254647	21	2	1,0			1,0				
2	Sayxunobod kasb-hunarga	308655849	28	2	1,0			0,5			0,5	

	o‘qitish markazi											
3	Sayxunobod tumani 3-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203335453	44	3	1,0		1,0					1,0
4	Sayxunobod tumani 5-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206870222	30	2	0,5			1,0		0,5		
5	Sayxunobod tumani 14-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872884	26	2	1,0		0,5		0,5			
6	Sayxunobod tumani 19-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872869	35	2	1,0	0,5			0,5			
7	Sayxunobod tumani 21-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206863547	35	2	1,0			0,5	0,5			
8	Sayxunobod tumani 24-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206863554	34	2	1,0			0,5			0,5	
9	Sayxunobod tumani 25-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872820	33	2	0,5			1,0			0,5	

10	Sayxunobod tumani 30-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206865425	24	2	1,0			1,0				
11	Sayxunobod tumani 31-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206865378	35	3	1,0					1,0		1,0
12	Sayxunobod tumani 33-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872837	34	2	1,0			0,5			0,5	
13	Sayxunobod tumani 40-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206865393	40	3	1,0	1,0		1,0				
14	Sayxunobod tumani 3-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207027556	21	1	1,0							
15	Sayxunobod tumani 4-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207027564	24	2	1,0			1,0				
16	Sayxunobod tumani 10-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	204011215	31	2	0,5	0,5		1,0				
17	Sayxunobod tumani	205281419	23	2	0,5	1,0				0,5		

	14-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti											
18	Sayxunobod tumani 18-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	306341648	25	2	1,0		0,5		0,5			
			543	**38**	**16**	**3**	**2**	**9**	**2**	**2**	**2**	**2**